



O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Muallif: Tojiboyev Umidjon Usmonjon o'g'li¹

Affilyatsiya: Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14383136>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX-asr boshlarida qadimiy tarixiga ega bo'lgan o'zbek milliy musiqa san'atining an'analari va o'ziga xos xususiyatlari. Rossiya imperiyasi va Sovet hokimiyati yillarida o'zbek musiqa merosining xorijiy musiqashunoslar tomonidan o'rganilishi va bu borada amalga oshirilgan izlanishlar, musiqa san'atining Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotidagi o'rne va zamonaviy musiqa janrlarining shakllanishi yo'lida katta ishlar olib borgan olimlar, shuningdek, Turkistonda zamonaviy musiqaning shakllanish bosqichlari taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, mumtoz musiqa, milliy madaniyat.

KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan barcha sohada bo'lgani singari musiqa san'atini o'rganishda ham yangi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan etnomusiqashunoslik tarmog'ida ham keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'alariga egadir. Huddi shunday, o'zbek xalq musiqa san'ati ham o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq(folklor) va mumtoz musiqa merosiga ega. Zero, asrlar mobaynida shakllangan bebaxo ma'naviy merosimiz, milliy san'at va an'alarimiz xalqning milliy mentaliteti shakllanishidagi o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda, ularda milliy an'alarimiz va san'atga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda, milliy san'at asarlarimizning ayniqsa musiqa san'atining o'rni katta. Ushbu maqolada ham o'zbek milliy san'at va an'alarining o'ziga xos jixatlari, shuningdek, zamonaviy musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan.

Asosiy qism. XX-asr boshlariga kelib, musiqa san'atimizda yangi davr boshlandi desak xato bo'lmaydi. Buning asosiy sababi esa Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston xududlarining egallanishi ortidan mavjud tuzumning o'zgarishi va Yevropa madaniyatining kirib kelishi edi. O'zbek musiqa san'ati, azaliy an'alar negizida va yangicha munosabatlar asosida rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonga ko'chib o'tgan rus aholisi va harbiylarining ma'naviy va madaniy talablarini qondirish uchun Yevropa, Rossiya va Kavkazdan turli ijrochi jamoalar, mashhur xonanda va sozandalar tez-tez gastrol safarlariga kelib turadigan bo'ldilar. 1884-yilda tashkil etilgan “Turkistanskoye muzykalno - teatralnoye obshchestvo” jamiyati bunga bevosita o'z faoliyatini bag'ishladi va Yevropa, rus musiqa va teatr san'atlarini O'rta Osiyoda keng targ'ib qilishda muhim rol o'ynadi.

Mahalliy aholi vakillarida ham musiqa san'atiga qiziqish katta edi. Masalan, Mulla To'ychi Toshmuhammedov o'zining esdaliklarida shunday yozadi: "Biron bir musiqachini Toshkentga kelganini eshitsam (u vaqtlarda Toshkentga boshqa shaharlardan juda ko'p musiqachilar kelishar edi va o'z navbatida, Toshkent musiqachilari ham boshqa shaharlarga borishar edi), men ular bilan yaqinroq tanishishga va biron bir yangilikni o'rganishga harakat qilardim". Mulla To'ychi Toshmuhammedovga farg'onalik san'atkorlardan Nazirxon hofiz, Madumar, Abduqahhor hofizlar ustozlik qildi. Xalq uni ardoqlab "To'ychi Hofiz" deb ataydi. 1905 yil Moskvadan Toshkentga bir guruh musiqachilar kelib, uning ovozi grammafond plastinkasiga yozib oldi. To'ychi hofiz 1900 yilda Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindistonda, 1913 yilda Sharqiy Turkistondagi Qashg'ar, G'ulja, rkent kabi shaharlarda, 1914 yilda esa Chuguchak shahrida o'z san'atini namoyish qildi. Uning ijrosidagi xalq qo'shiqlarining 20 ga yaqin na'munasi plastinkalarga yozib olindi. Qo'shiqchi va san'atkorlar xalq hizmatida edi. Odatda ba'zm ertalabga yaqin tugardi. Revolyusiyadan oldingi to'y-tomosha gap, to'qma, hilma-hil marakalarda hizmat qilingan. Ko'pincha mahalliy xofizlar kechalari dam olish o'rniga mexmonxonalarda, bazmlarda xofizlik qilardi. Yana shuni aytib o'tish joizki, "Inqilob"dan avval Farg'ona vodiysida, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida istiqomat va ijod qilgan, mashhur, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan san'atkorlar, sho'ro hokimiyati davrida ham, shogirdlari bilan, o'z faoliyatlarini davom ettirib xalqqa xizmat qildilar. Ular yangi zamonda, shaharlarning xalq bilan gavjum boigan katta choyxonalarida o'z san'atlarini namoyish qildilar.

1918-yili "Turkiston Xalq konservatoriyasi" nomli musiqiy o'quv dargohi tashkil topdi. Uning tashkilotchilari fizika, matematika o'qituvchilari, havaskor violonchelchi A.M.Popov va skripkachi E.A.Chemyavskiyalar mazkur o'quv dargohini ochish niyatlarini matbuotda e'lon qildilar. E'londa ko'rsatilgan muddatda Toshkentda istiqomat qilayotgan san'atkorlardan 32 kishi musiqadan yoshlarga dars berishga o'z xohishlarini bildirdilar. Keyinchalik konservatoriyaning hududlarda filiallari ham tashkil etildi. Bunga sabab konservatoriya o'qishni istovchilar sonining keskin ortib ketganligi edi. Konservatoriya filiallari Toshkent temiryo'lining ishchi va xizmatchi xodimlari uchun 1919-yili "Privokzalnaya" nomli bo'lim (filial) ochilib, bu bo'limni xormeyster V.F.Sakovich boshqardi. O'sha yili Toshkentning baland masjid rohat bog'ida "Eski shahar" bo'limini kompozitor VA.Uspenskiy boshqardi. U eng avval mashhur hofiz Shorahim Shoumarov bilan tanishdi.

1918-yil Toshkentdagi "Na'muna" maktabida ham muzika to'garagi tashkil etildi. 1919-yil "Baland machit"da muzika texnikumi tashkil etildi. Sal-pal qo'shiq aytib yurganlar texnikumning ashula bo'limiga, qo'lga soz ushlashni biladiganlar cholg'u bo'limiga qabul qilindi. Xalq qo'shiq va kuylarini o'rgatish uchun o'zbek xalq muzikasining keksa namoyondalari tanburchi-ashulachi Shorahim Shoumarov, tanburchi Shoborat aka, doirachi Shojalil aka, atoqli dutorchi, Abdusamat Vahobov, changchi Ismat aka, g'ichchakchi Qurbon Hakimov jalb qilindi. Ushbu texnikumda tajribali musiqashunos Uspenskiy o'quvchilarga nota o'rgatdi.

1920-yil 28-aprelda "Musiqa - etnografiya" bo'limi ham ochildi. Bu bo'limga atoqli kompozitor va etnograf (kelgusida O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti) V.A.Uspenskiy, uning o'rinbosari qilib atoqli kompozitor - etnograf N.N.Mironov va bo'lim

xodimi etib, atoqli shoir - dramaturg G'ulom Zafariylar tayinlandi. 1919-yil 15-iyulda Toshkentda Turkiston Halq maorifi kamissarlighi huzurida muzika-etnografiya bo'limini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turkiston halqlari milliy musiqasini, shu jumladan o'zbek xalq milliy musiqasini tartibga keltirish sohasida V.A.Uspenskiy, Y.Melngaypis, N.N.Mironovlar ish olib bordilar. 1923-yil fevral oyida V.A.Uspenskiy Buxoro xalq respublikasi Xalq ma'orifi noziri Fitrat bilan Buxoro shashmaqomini notaga yozish xaqida shartnoma tuzdi. Uspenskiy Buxoroda mashhur maqom donishmandlari Ota Jalil Nosirov va Ota G'iyos G'aniyevdan bir yil davomida Buxoroning olti maqomini "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugox", "Segox" va "Iroq"ni yozib oldi. Shashmaqomning 1924-yilda Moskvada bosilib chiqishi O'zbek musiqa madaniyatida katta voqea bo'ldi. Bu bo'limlar keyingi yillar davomida hamkorlikda foyiat olib bordilar va bevosita Turkistonda milliy san'at va an'analarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirish ishlariga bosh-qosh bo'ldilar. Shuningdek, mamlakatda foyiat olib boradigan tashkilotlarda havaskorlar to'garaklari tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Yana shuni aytib o'tish joizki, "Inqilob"dan avval Farg'ona vodiysida, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida istiqomat va ijod qilgan, mashhur, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan san'atkorlar, sho'ro hokimiyati davrida ham, shogirdlari bilan, o'z faoliyatlarini davom ettirib xalqqa xizmat qildilar. Ular yangi zamonda, shaharlarning xalq bilan gavjum bo'lgan katta choyxonalarida o'z san'atlarini namoyish qildilar.

Zamonaviy o'zbek milliy musiqa san'atini rivojlantirish ishlari barcha hududlarda jadal olib borildi. Masalan, 1924 yilning avgust oyida Kattaqo'rg'onning shahar bog'ida sayl tashkil etildi. Bu saylda Xoji Abdullaziz, Levi Boboxon, Yunus Rajabiy va Toshkentdan borgan mexmon san'atkorlar ishtirokida katta konsert tashkil etildi. 1923 yil mart oyida Yunus Rajabiy Samarqand musiqali drama teatriga musiqa rahbari qilib tayinlandi.

XULOSA

XX-asr boshlari Turkistonda musiqa san'atining o'ziga hos tarzda rivojlanganligi bilan harakterlanadi. Turkistonda an'anaviy musiqa asosida zamonaviy musiqaning shakllanish va rivojlanishida maxalliy san'atkorlar shu bilan bir qatorda xorijlik musiqa donishmandlarining ham o'rni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy san'at namoyondalari musiqaning jamiyat xayotiga to'g'ri yo'nalish bera olishi, ma'naviy tarbiyadagi cheksiz o'rnini anglab yetishdi. Lekin, Imperiya amaldorlari mustamlakachilik siyosatini olib borib xalq ommasini qaloqlikda "saqlab milliy madaniyatning har qanday ko'rinishlarini yo'q qilishga urindi". Amalda esa o'zbek zamonaviy musiqasining shakllanish jarayoni o'ziga hos katta yo'lni bosib o'tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Milliy Arxivi. R – 2660 - fond, 1-ro'yxat, 118-ish.
 A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. "O'zbek musiqasi tarixi". —T.: «Fan va texnologiya», 2018. 26-b.
 S.Murtozova. XIX asr oxiri XX-asr 80-yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatidagi transformatsiya jarayonlari. t.f.b.f.doktori dissertatsiyasi. –T.: 2018.